

Moliya va iqtisodiyot boshqarmasi

Boshqarmaning vazifalari quyidagilar:

1. Jamiyatning samaradorligini hamda ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat bo'yicha ish yuritish.

2. Jamiyatning har bir faoliyati turlari (*tabiiy, suyultirilgan gaz sotish va boshqalar*) bo'yicha boshqarma va bo'limlar bilan hamkorlikda yillik biznes-reja loyihasini ishlab chiqib, kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash uchun tegishli boshqarma(bo'lim)ga taqdim etish.

3. Jamiyatning iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq daromad va xarajatlarni tahlil qilib borish, ularni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Tabiiy va suyultirilgan gaz yetkazib berishda tannarx xarajatlarini kamaytirishning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ko'rsatkichlar bajarilishini tahlil qilib borish.

5. Tabiiy va suyultirilgan gazni xarid qilish narxi bo'yicha hisob-kitoblarini tegishli boshqarma va bo'limlar bilan hamkorlikda belgilangan tartibda ishlab chiqish (*sotish narxlari yoki xarajatlar tarkibida keskin o'zgarish bo'lgan holatda*) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasining ishchi organi – Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish.

6. Sohaga doir loyihalar, rejalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, daromad va xarajatlarga ta'sirini baholash va hisob-kitoblarini ishlab chiqish;

7. Tabiiy va suyultirilgan gazni iste'molchilarga yetkazib berish xarajatlarini har bir filial kesimida tahlil qilish, xarajatlarni va unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganish hamda daromadlar bilan taqqoslash ishlarini amalga oshirish.